MILLIY MUMTOZ ADABIYOTIMIZ QOSID TIMSOLI QO‘LLANILISHINING ILDIZI

Mardanov Rahim G‘aybulla o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Gmail: rahimmardanov42@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada milliy mumtoz adabiyotimiz xususan, she’riyatida qosid timsoli qo‘llanilishining ildizi, adabiyotimiz xazinasidan o‘rin olgan she’riy asarlar muayyan bir sana bilan chegaralangan bo‘lishiga qaramay, ancha uzoqlarga borib taqalishi haqidagi fikrlar muhokama qilinadi.

Kalit so`zlar: Qosid, timsol, she’riyat, mumtoz, lirik qahramon, she’riy asarlar, xabarchi, uyg‘onish davri.

Bunga qo‘shimcha qilib aytishimiz mumkinki, ma’shuqadan ayro tushib, hajr o‘tida yongan oshiq o‘z holatining qanday ekanligini yoriga etkazish uchun uchinchi bir shaxsga ehtiyoj sezadi. Mumtoz adabiyotimizda ana shu ehtiyoj tufayli, ya’ni oshiqdan ma’shuqaga xabar etkazish uchun ular o‘rtasida turadigan xabarchi – qosid timsoli yaratilgan. Qosid – 1. Elchi, xabarchi. 2. Qasd qiluvchi, niyat etuvchi [1, 67-b].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi ta’rifni o‘qiymiz:

Qosid – (arabcha, قاصد – jo‘nab ketayotgan; intiluvchi, qasd qiluvchi; xabarchi, elchi, chopar) esk.kt. 1. ayn. xabarchi. 2. Qasd qiluvchi, intiluvchi[2, 346-b].

Biz berilgan bu ta’riflardan so‘zning birinchi ma’nosiga diqqatni qaratamiz.

Demak, qosid tushunchasi bir kishidan ikkinchi kishiga xabar olib boradigan kishini anglatarkan, adabiyotimizda bu timsolning shakllanishi, tadrijiyati, asar g‘oyasini bayon qilishdagi hamda badiiyatidagi o‘rnini tahlil va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asrning birinchi o‘n yilligida navoiyshunoslar orasida D.Salohiy, N.Bekova, D.Yusupova, Z.Mamadaliyeva, M.Tojiboyeva, E.Nasrullayev, S.O‘tanova singari

olimalarning tadqiqotlari katta avlod navoiyshunoslar boshlagan xayrli ishning munosib davomi bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Biroq yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilarning ishlari orasida Navoiy ijodidagi muayyan bir timsol tadqiqiga maxsus bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar nihoyatda kamsonli, mavjudlari ham boshqa bir mavzuni ochib berishga xizmat qilishi maqsadida yo‘l-yo‘lakay zikr etib kelingan. Jumladan, N.Komilov, E.Shodiyev, D.Yusupova, L.Zohidov kabi olimlarimizning ilmiy izlanishlari Navoiy ijodidagi timsollarning ma’lum bir jihatlari tadqiqiga bag‘ishlangan.

XV asr o‘zbek she’riyatining yirik namoyandalaridan biri, Navoiy ta’biri bilan aytganda, “turkigo‘y mashohirdin...” sanalgan zullisonayn shoir Gadoiy sanaladi. Gadoiy ijodida ham qosidga murojaat uchraydi. Jumladan, Shoirning *“Ohkim, devona ko‘nglum mubtalo bo‘ldi yana...”* matla’li g‘azalida shunday bayt bor:

Chini zulfingdin dam urmog‘liq ne nisbat, ey abir,
Bu kinoyat bori sendin, bas, xato bo‘ldi yana.

Baytdagi tushunilishi qiyin so‘zlarning ma’nolarini aniqlashtirib olamiz: *abir, kinoyat*.

Abir – xushbo‘y hid, anbar.

Kinoyat – kesatiq, piching, qochiriq.

Endi bayt tahlilini qaraymiz: xush iforli sochlaringdan so‘zlamoq bilan sening hamma qochiriqlaringning qanday o‘xshashligi bor, ey anbar, endi bas, bari xato bo‘ldi.

Ko‘rinadiki, shoir qosid vazifasini baytda abir, ya’ni anbarga topshiryapti. An’anaviy she’riyatda yorning xushbo‘y iforli sochidan xabar beruvchi timsol sifatida sabo keltirilsa, Gadoiy uning o‘rnida xushbo‘y ifor, ya’ni abir timsolidan foydalanadi. Bu bilan u badiiy tasvirlashga yangilik olib kira olgan, deyish mumkin.

Gadoiyning “Ey ko‘ngul, dilbar xayoli chunki hamdamdur sanga” matla’li g‘azaliga [3, 23-b] mansub quyidagi baytni tahlil qilamiz:

Qon yutarmen rashk elindin har kecha tongg‘a degin
Kim, nechuk bodi sabo hamrozu hamdamdur sanga.

Tabdili: *har kecha tongga qadar rashk qo‘lidan qon yutaman, bunga sabab tong shamolining senga sirdosh va hamdam ekanligidir.*

Baytda garchi bodi saboning biror bir narsadan xabar keltirayotganligi haqida so‘z bormayotgan bo‘lsa-da, u ma’shuqaga sirdosh va hamdam timsoli sifatida gavdalanyapti. Albatta, oshiq yo ma’shuqaga sirdosh bo‘lgan shaxs yoki narsaning ulardan birining ahvoli haqida ikkinchisiga xabar etkazishi hayotiy haqiqatdir. Chunonchi, xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov aytganlaridek,

Muhabbat bobida u-ku bir mahram,
Uningsiz visol hamyo‘qdir aslida.
Shoirning yor uchun bitgan she’rin hamh
Yod olgan o‘shadir she’rxon shaklida[4, 419-b].

Atoyi qalamiga mansub quyidagi g‘azalning matla’sida nasim timsoli endi xabarchi emas, balki yor zulfidan taralayotgan yoqimli shamol, ya’ni o‘z ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, xabarchi vazifasini boshqa timsol – sabobajarmoqda:

Mujda berdi subhidam zulfing nasimidin sabo,
Jon muattar bo‘ldi, ko‘nglum topti yuz turluk safo[5, 23-b].

Baytdagi so‘zlarning hammasi deyarli tushunarli, faqat *safo* so‘zining ma’nosini aniqlashtirib olamiz.

Safo – 1. Poklik, tozalik, tiniqlik. 2. Go‘zallik. 3. Tinchlik, sulh, osoyishtalik.

Safo – (arabcha, صفاء – tozalik, tiniqlik, soflik; samimiylik; xotirjamlik) 1. Beg‘ubor tozalik, musaffolik, soflik. 2. Xursandchilik kayfiyati, nash’u namo; huzur, gasht.

Baytdagi *nasim* so‘zi ham o‘z ma’nosi – *shamol* ma’nosida emas, balki *soch* so‘ziga bog‘lanib, ko‘chma ma’noda – *muloyim ifor* ma’nosida kelyapti. Sabo so‘zi ertalab esadigan mayin va yoqimli shabadani anglatadi va odatda, u biror yaxshilik xabari bilan bog‘liq bo‘ladi

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bayt shunday sharhlansa bo‘ladi: erta tongda mayin esgan shabada sochlaringningmuloyim iforidan xabar bergach, jonim xush bo‘ylarga to‘lib, ko‘nglim yuz turli huzur topdi.

Xulosa qilib aytganimizda, Milliy she’riyatimizda Ilk Uyg‘onish davri adabiyotida qosid timsoli alohida ahamiyat kasb eta bordi. Yusuf Xos Hojib, Xorazmiy ijodida bu timsolga murojaat nisbatan kamroq uchrasa-da, Atoyi va Gadoiy she’riyatidan boshlab qosid timsoli she’riyatda mustahkam o‘rin egallagan, ya’ni ularning she’riyatida qosid timsoliga murojaat bir muncha ko‘p uchraydi. Qosid vazifasini sabo, tong eli, nasim, shamol, roviy va, hatto, abir (anbar) timsollari bajargan.

Demak, qosid timsoli she’riyatimizning Navoiy davrigacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlarida to‘la shakllanib, mumtoz adabiyotimizdagi an’anaviy timsollar safidan joy olgan va she’riyatimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati(ANATIL). 4 jildlik. – T., “Fan”, 4-jild, 1985, 67-b.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati(O‘TIL). 2 jildlik. – Toshkent, “O‘zME” DIN, 2-jild, 1989, 346-bet.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent, Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2007, 14-b.
4. Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi AvSN, 1987, 419-b.
5. Atoyi. Devoni shayxzoda Atoyi. – Toshkent, “Fan”, 2008, 23-b.
6. Rahim M. Xabar qahramonlariga murojaat qilish va she'riy mahorat //Yevropa xalqaro filologiya fanlari jurnali. – 2025. – T. 5. – No 03. – 12-16-betlar.